

E.X. XAITOV

KOMPOZITSIYA



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI KAMOLIDDIN
BEHZOD NOMIDAGI
MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI

E.X. XAITOV

KOMPOZITSIYA


fanidan

O'quv qo'llanma

5150800 — *Rangtasvir (turlari bo'yicha)*

5111000 — *Kasb ta'limi*

(I-bosqich talabalari uchun)



Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2019

UDK 7.048.38(0.75.8)

BBK 85.14ya73

X 17

Xaitov, E.X.

X 17 **Kompozitsiya fanidan [Matn]: (I-bosqich talabalari uchun) /o'quv qo'llanma/E.X. Xaitov/Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2019. — 112 b. ISBN 978-9943-6134-3-0**

Ushbu o'quv qo'llanma oliy o'quv yurtining Tasviriy san'at yo'nalishidagi talabalar uchun yaratilgan bo'lib, tasviriy san'atning asosi hisoblangan kompozitsiya bo'yicha amaliy mashg'ulotlarning mazmuni yoritilgan.

O'quv qo'llanmaning asosiy vazifasi talabalarning kompozitsiya sirlarini o'zlashtirish, mustaqil fikrlash va ijodiy faoliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Mazkur qo'llanma kompozitsiya fanidan yaratilgan dastur asosida tuzilgan bo'lib, illyustratsiyalar bilan boyitilgan. Oliy o'quv yurtlari uchun mo'ljallangan ushbu qo'llanmadan shu sohaga aloqador mutaxassislar ham foydalanishlari mumkin.

UDK 7.048.38(0.75.8)

BBK 85.14ya73

ISBN 978-9943-6134-3-0

© E.X. Xaitov, 2019

© Cho'lpon nomidagi NMIU, 2019

KIRISH

Kompozitsiya asoslarini o'rganishdan maqsad, amaliy mashg'ulotlar jarayonida ijodkorlikka yo'naltirish va mustaqil tasviriy san'at ustida ishlashni shakllantirishdan iboratdir.

San'atda mazmunan va g'oyaning eng yaxshi yechimini umumijodiy mahoratini oshirish, nafosat tarbiyasining muhim omillaridan biridir.

Har qanday ijodkor o'tmishdagi rangtasvir san'at ustalari merosini va tajribalarini o'rganish bilan birga, tomoshabinga chuqur ta'sir etuvchi tasvir qonunlari va uslubiylatini ham o'rganadi.

«Kompozitsiya» fani bo'yicha yozilgan ushbu o'quv qo'llanma talabalarning dunyoqarashini shakllantirish, ijodiy tasavvur va obrazli fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Keng badiiy estetik madaniyat va badiiy sezgini tarbiyalash, san'at asarini tahlil qilish malakasini oshirish, atrof-muhitdan olgan tassurotlarini ijodiy tanlab olib, obrazli shaklda haqqoniy tasvirlashi shu asosida bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lish uchun talabalar quyidagilarni o'zlashtirishi lozim. Kompozitsion asar yaratishda rangtasvir san'atining o'ziga xos xususiyatlarini anglash, xomaki chizgilar, natura (tasvirlanuvchi qomat), inson qiyofasi, yaxlit qiyofa, obraz, tabiat manzaralari, tanlangan mavzuga doir bajariladigan etyudlar, mavzu doirasida kompozitsion ifodalilikka xizmat qiluvchi tasviriy ashyolar, kompozitsion muhit tashkil etuvchi atributlar singari tasviriy ashyolarni jamlashdir. Rassom tomonidan bajariladigan tasviriy asar sifatida shakllanishida ko'plab badiiy asar yaratish qonun-qoidalarini o'rganish va ijodkor sifatida unga bo'ysunish, rassom-san'atkor sifatida esa voqeylikka bo'lgan

dunyoqarashni belgilovchi falsafiy mushohadani o'zlashtirish, unga rioya etish va amalda qo'llay bilishda yordam beradi.

Malakali rassom tayyorlashda kompozitsiya fanining ahamiyati beqiyos. Ushbu fanni o'rganish jarayonida talabalar tasviriy san'atda asar kompozitsiyasi va uning tur va janrlari, vositalari, usullari hamda elementlari haqida nazariy bilim olishlari lozim.

Talabalar olgan nazariy bilimlarini badiiy asar yaratishda amaliy jihatdan qo'llash ko'nikmalarini egallashga yordam beradi.